

MAVZU ; " IBORALAR HAQIDA."

Chirchiq shahar Politeknikumi O'zbek tili o'qituvchisi

Matkarimova Nazokat O'rinbayevna.

Annotatsia; *Tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri frazeologizmlardir. Frazeologik iboralar til birligi sifatida nutqda namoyon bo'ladi. Iboralar nutqning ta'sirchan va bo'yqador bo'lishini ta'minlaydi. Frazeologik iboralar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Ushbu maqolada aynan frazeologik iboralar va ularning tahlil qilish usullari ochib berilgan zero, har bir tildagi iboralarni o'rganish va tahlil qilish har bir tilshunoslik sohasi uchun muhim hisoblanadi.*

Asosiy qism. Ibora (arabcha: عبارة, 'ibāra) so'zi, asosan „so'zlash“, „ifodalash“ yoki „tushuntirish“ ma'nolarini anglatadi. Tilshunoslikda ibora, ma'lum bir fikrni yoki tushunchani ifodalovchi so'zlar birikmasidir. Bu so'zlar birgalikda ishlatilganda, ularning umumiy ma'nosi alohida-alohida olingan so'zlarning ma'nosidan farq qiladi. Ibora, tilning boy va rang-barang ifodalovchi vositasi bo'lib, ko'pincha ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstga bog'liqdir. Ibora, o'z tarkibidagi so'zlar birgalikda yangi ma'no yaratadi. Boshqacha aytganda, iboradagi so'zlar o'zining oddiy, literal ma'nolaridan farq qiladi va birgalikda ishlatilganda aniq bir tushunchani anglatadi. Ibora tilshunoslikda, asosan, so'zlarning semantik xususiyatlarini ifodalaydi va shuning uchun tilni chuqurroq tushunish uchun muhim vosita hisoblanadi. Frazeologiya (yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (^.Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazeologiya asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanilishini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiya eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil

qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqa Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik vazifaviyuslubiy asoslarga ko'ra tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazeologiyada o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-

yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlaridan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan. Bu erda biz frazeologik birliklarga misollarni ko'rib chiqamiz, boshiga yetdi – halok qildi; bosh aylantirdi – esankiratdi; dami ichiga tushmoq – qo'rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo'lib qolmoq;

dog'da qolmoq - biror narsaning kutilganicha bo'lmagani tufayli o'kinmoq, alamzada bo'lmoq; dumini tugmoq – qaytmas qilib haydamoq; dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi – o'taketgan beg'am, haddan tashqari beparvo; es-hushini olib qo'ydi – o'ziga haddan ortiq darajada mahliyo qilib qo'ydi; esi og'ib ketmoq – hayoli biror narsa haqidagi o'y-hayollar bilan band bo'lmoq; yerga ursa ko'kka sapchiydi – o'taketgan sho'x, o'taketgan betinim;

miyani qoqib, qo'lga bermoq – so'rayverib, miyasini charchatmoq, sergapligi bilan bezdirmoq; nafasi ichiga tushmoq – qo'rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo'lib qolmoq; nari borib, beri keldi – juda qattiq azoblandi; nonini tuya qildi – aldab-suldab birovning haqqini o'zlashtirdi;

Xulosa qilib aytganda, frazeologik iboralar tilimiz va muloqotimizda muhim o'rin tutadi. Ular bizga murakkab g'oyalarni etkazishga, nutqimizga rang va tuzilish qo'shishga va boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Bu iboralardan unumli foydalansak, biz tilda yanada ravon va tabiiyroq jaranglashimiz, uning lingvomadaniy xususiyatlarini anglashimiz, til bilimimizni yaxshilashimiz va tushunmovchiliklardan qochishimiz mumkin. Shunday ekan, jamiyatimizdagi barcha insonlar, ayniqsa tilshunoslikka endi qadam qo'yayotgan yosh tadqiqotchilar uchun frazeologizmlarni o'rganish va tadqiq etishda so'zlashuv uslubidagi iboralarni tadqiq va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR.

1. Rahmatullayev. Sh "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". - O'qituvchi, 1978

2. Qosimova A. "O'zbek va ingliz frazeologiyasi". - Scientific progress, 2021. ("Uzbek and English phraseology").
3. Urokov Sh, Isayeva M. "Linvokulturologik iboralar va ularning semantik ma'nolari". -"Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, 2022. ("Linvocultural expressions and their semantic meanings").
4. Kaxarov, Q., & Dehqonova, D. (2024). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI. Farg'ona Davlat Universiteti, tillari idiomalarini taqqoslashning lingual tahlili". - Ustozlar uchun, 2023. ("Lingual analysis of the comparison of Uzbek and English idioms").